



JIZZAX VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-dekabr

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi*
Тел. 72-221-51-26

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyl ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlarining
o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr oyi, foizda)**




2025-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 187 tani tashkil etib, shundan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 7 126 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-dekabr, mlrd so'mda)**



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil qilgan.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari,
oylar kesimida
(2023- 2024- yillar)**



2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-dekabr oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 11 590,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 109,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 530,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 95,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8 510,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 549,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,7 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr oy)**

| | Jami, mlrd so'm | 2023- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|------------------------|----------------------------|---|
| Jizzax viloyati | 11 590,6 | 109,5 |
| Jizzax sh | 3 015,8 | 111,2 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 276,5 | 106,0 |
| Baxmal | 1 201,9 | 109,8 |
| G'allaorol | 1 070,1 | 110,3 |
| Sh Rashidov | 1 438,8 | 110,0 |
| Do'stlik | 470,0 | 108,7 |
| Zomin | 1 344,5 | 108,9 |
| Zarbdor | 440,1 | 106,4 |
| Mirzacho'l | 365,3 | 108,8 |
| Zafarobod | 206,2 | 105,7 |
| Paxtakor | 590,9 | 108,4 |
| Forish | 510,3 | 110,4 |
| Yangiobod | 127,7 | 107,4 |

2024- yilning yanvar-dekabr oyida 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan viloyatning Jizzax sh (111,2 %), Forish (110,4 %) tumanlari va G'allaorol tumanida (110,3 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 27,1 % bilan 3 015,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumanii 1,2 % bilan 127,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-dekabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 11 060,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 10,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,4 % ni tashkil etdi.

| | |
|----------------|--------------------|
| 113,1 % | Jizzax sh. |
| 111,4 % | Paxtakor |
| 110,9 % | Mirzacho'l |
| 110,9 % | G'allaorol |
| 109,9 % | Sh.Rashidov |
| 109,4 % | Zomin |

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 530,2 mlrd so'mni va o'sish sur'ati 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 95,0 % ni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining 4,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



| | |
|----------------|--------------------|
| 114,5 % | Zafarobod |
| 121,7 % | Arnasoy |
| 127,6 % | Zarbdor |
| 128,5 % | Yangiobod |
| 130,3 % | Sh.Rashidov |
| 3,1 m. | Baxmal |
| 3,1 m. | Forish |


**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA
XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)**

| | | |
|--------------------|------|------|
| Arnasoy | 0,9 | 99,1 |
| Baxmal | 1,3 | 98,7 |
| G'allaorol | 2,7 | 97,3 |
| Sh Rashidov | 0,9 | 99,1 |
| Do'stlik | 0,6 | 99,4 |
| Zomin | 13,8 | 86,2 |
| Zarbdor | 0,7 | 99,3 |
| Mirzacho'l | 3,2 | 96,8 |
| Zafarobod | 1,0 | 99,0 |
| Paxtakor | 0,4 | 99,6 |
| Forish | 1,4 | 98,6 |
| Yangiobod | 1,2 | 98,8 |
| Jizzax sh. | 6,2 | 93,8 |

Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (99,6 %), Do'stlik (99,4 %) va Zarbdor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 4,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (13,8 %), Jizzax shahri (6,2 %), Mirzacho'l (3,2 %) va G'allaorol (2,7 %) tumanlarida kuzatildi.




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda)



2024- yilning yanvar-dekabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 7 612,9 ming so'm (2023- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,3 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (15 238,9 ming so'm), Zomin (7 399,6 ming so'm) va Paxtakor (7 233,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr), foizda



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-dekabr)

| | Jami, mlrd. so'm | 2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|------------------------|------------------------|---|
| Jizzax viloyati | 2 549,8 | 113,7 |
| Jizzax sh | 531,0 | 120,5 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 20,1 | 111,4 |
| Baxmal | 430,3 | 113,6 |
| G'allaorol | 302,3 | 120,5 |
| Sh Rashidov | 156,0 | 79,5 |
| Do'stlik | 157,7 | 125,4 |
| Zomin | 306,9 | 105,5 |
| Zarbdor | 170,3 | 111,2 |
| Mirzacho'l | 112,1 | 133,8 |
| Zafarobod | 0,0 | 0,0 |
| Paxtakor | 198,8 | 117,4 |
| Forish | 124,1 | 122,1 |
| Yangiobod | 40,2 | 121,5 |


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-dekabr)**



**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm
(2024- yil yanvar-dekabr)**



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 549,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 113,7 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 330,3 mlrd so'mni (126,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 219,5 mlrd so'mni tashkil etdi (114,6 %).


2024-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1 330,3 mlrd so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (101,7 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi

| | | |
|--|---|---|
| Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 101,7 mlrd so‘m  45,0 % | Non va non mahsulotlari 26,3 mlrd so‘m  11,6 % | Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 14,4 mlrd so‘m  6,4 % |
| Tovuq go‘shti 5,9 mlrd so‘m  2,6 % | Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 8,3 mlrd so‘m  3,7 % | Tuxum 8,3 mlrd so‘m  3,7 % |
| Ziravorlar 9,3 mlrd so‘m  4,1 % | Sut va sut mahsulotlari 11,0 mlrd so‘m  4,9 % | Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 15,9 mlrd so‘m  7,0 % |
| Tuzlamalar 7,8 mlrd so‘m  3,4 % | Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari 1,0 mlrd so‘m  0,4 % | Nooziq-ovqat tovarlar 16,4 mlrd so‘m  7,2 % |

2024- yilning yanvar-dekabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 219,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 93,2 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 28,0 mlrd. so'mni, otlar – 1,9 mlrd so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

| | Jami mlrd so'm | 2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|------------------------|-------------------|---|
| Jizzax viloyati | 5 681,2 | 110,6 |
| Jizzax sh | 172,6 | 104,8 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 5,1 | 103,7 |
| Baxmal | 24,3 | 108,6 |
| G'allaorol | 24,1 | 105,1 |
| Sh Rashidov | 76,6 | 105,4 |
| Do'stlik | 9,1 | 103,1 |
| Zomin | 63,2 | 236,4 |
| Zarbdor | 18,5 | 102,2 |
| Mirzacho'l | 7,0 | 103,5 |
| Zafarobod | 2,2 | 102,1 |
| Paxtakor | 11,5 | 104,0 |
| Forish | 12,0 | 100,8 |
| Yangiobod | 2,6 | 98,3 |

2024- yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 681,2 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

| | Hajmi, mlrd so‘m | Ulushi, Foizda |
|------------------------|-----------------------------|---------------------------|
| Jizzax viloyati | 13 592,7 | 109,0 |
| Jizzax sh | 8 733,6 | 124,5 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 4,3 | 150,0 |
| Baxmal | 3 099,1 | 97,3 |
| G‘allaorol | 907,0 | 573,0 |
| Sh.Rashidov | 465,3 | 27,4 |
| Do‘slik | 3,9 | 143,7 |
| Zomin | 323,3 | 86,0 |
| Zarbdor | 0,5 | 150,0 |
| Mirzacho‘l | 17,4 | 150,0 |
| Zafarobod | 1,2 | 150,0 |
| Paxtakor | 11,3 | 150,0 |
| Forish | 23,8 | 110,9 |
| Yangiobod | 2,0 | 150,0 |


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (8 733,6 mlrd so‘m), Baxmal (3 099,1 mlrd so‘m) va G‘allaorol (907,0 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024- yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 13 592,7 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 8 869,9 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 4,6 m. %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 4 722,8 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 44,8 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 539,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 47,2 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

11,4 %

630,4 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

88,6 %

4 909,4 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4 909,4 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 40,3 % ga o‘sdi. Viloyatda ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-dekabr)

| | Jami mlrd so'm | 2023- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda |
|------------------------|-------------------|---|
| Jizzax viloyati | 5 539,8 | 147,2 |
| Jizzax sh | 3 440,8 | 177,7 |
| tumanlar : | | |
| Arnasoy | 69,3 | 108,0 |
| Baxmal | 77,0 | 58,0 |
| G'allaorol | 186,5 | 154,4 |
| Sh Rashidov | 302,9 | 97,5 |
| Do'stlik | 75,0 | 95,7 |
| Zomin | 398,9 | 95,2 |
| Zarbdor | 99,1 | 96,9 |
| Mirzacho'l | 17,5 | 75,9 |
| Zafarobod | 18,6 | 99,7 |
| Paxtakor | 17,6 | 13,1 |
| Forish | 409,3 | 14,5 m. |
| Yangiobod | 10,1 | 100,9 |

2025-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 344 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 322 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Forish (1 190,6 m.), Zomin (1 018,7 m.) va G'allaorol (49,5 m.) tumanlarida kuzatildi.